

BADIIY MATNDA BA'ZI ONOMASTIK BIRLIKLARNING PRETSEDENT NOMLAR SIFATIDA QO'LLANISHI

Axmadjonov Nurbek Zokirjono'g'li

O'zbekiston, Farg'ona

Farg'ona davlat universiteti

o'qituvchisi (PhD)

Annotatsiya: Ushbu maqolada badiiy asarlarda qo'llanilgan pretsedent nomlarning uslubiy-funksional, semantik hamda lingvopoetik xususiyatlari bayon qilingan.

Annotation: This article describes the stylistic-functional, semantic and linguopoetic features of precedent names used in artistic works.

Абстракт: В данной статье описаны стилистически-функциональные, семантические и лингвопоэтические особенности прецедентных имен, используемых в художественных произведениях.

Tayanch so'z va iboralar: Poetonim, Intertekstuallik, Pretsedent nom, Allyuziya, Antroponim, Toponim, Biblionim, Zoonim

Key words and word expressions: Poetonym, Intertextuality, Precedent name, Allusion, Anthroponym, Toponym, Biblionym, Zoonym.

Ключевые слова и выражения: Поэтоним, Интертекстуальность, Прецедентное имя, Аллюзия, Антропоним, Топоним, Библионим, Зооним

Badiiy asar bu – ismlarning o'zaro ta'siri uchun alohida o'ringa ega. Badiiy matnning elementi sifatida nomlar asar mazmunining shakllanishiga yordam beradi. Pretsedent nomni o'rganish orqali muallif g'oya, asar konsepsiyasini ochib berishga harakat qiladi.

Zamonaviy onomastikaning etakchi an'analaridan biri badiiy matnda atoqli otlarni o'rganishdir. Bu masalaning muhimligini O.I.Fonyakova, N.V.Podolskaya, A.V.Superanskaya, V.M.Kalinkin, V.N.Mixaylov, T.V.Bakastovalar bir necha bor ta'kidlaganlar. O'zbek tilshunosligida M.Yo'ldoshev, SH.Abdurahmonov, SH.Doniyorov, S.Karimov,

M.Yokubbekova, M.Tojiboev, D.Islamova, G.Shukurova, I.Yusupov va boshqalar badiiy matnga oid tadqiqotlar olib borgan.

Badiiy asar tilini o'rganish hozirgi kunda tilshunoslikning muhim amaliy masalalaridan biri bo'lib, u shoir yoki yozuvchining o'ziga xos badiiy vositalarini aniqlash va undan samarali foydalanishda yordam beradi. Har bir yozuvchi, shoirning o'ziga xos yo'li, badiiy uslubi, "ovozi" bo'ladiki, u umumxalq tili qonuniyatlariga asoslanadi va bo'ysunadi.

Tilshunos M.Yo'ldoshev o'zining "Badiiy matn lingvopoetikasi" nomli monografiyasida badiiy matnni quyidagicha ta'riflaydi: "Badiiy matn badiiy asar mazmunini ifodalagan, funksional jihatdan tugallangan, tilning tasvir imkoniyatlari asosida shakllangan, o'zida turli uslub ko'rinishlarini muallifning badiiy niyatiga ko'ra erkin jamlay oladigan, tinglovchi yoki o'quvchiga estetik zavq berish, ta'sir etish xususiyatiga ega bo'lgan g'oyat murakkab butunlik" [1,88].

Badiiy asarda qo'llangan kishi nomlarini amaliy jihatdan o'rganish va tatbiq qilish alohida ahamiyat kasb etadi. Ular asar tilining milliylikka va xalq turmush tarzi-yu urf-odatlariga qay darajada bog'liqligi, mosligini ko'rsatib beruvchi vosita sanaladi. Badiiy asar tilidagi nomlarni tadqiq qilish, bir tomondan, tilshunoslikning onomastik birliklar sohasi uchun ahamiyatli bo'lsa, ikkinchi tomondan, tilshunoslikdagi eng dolzarb masalalaridan biri – badiiy asar tili va yozuvchi uslubi muammosiga ma'lum bir aniqliklar kiritishi bilan ahamiyatlidir.

Badiiy matn, tilshunoslik nuqtai nazaridan o'ziga xos hodisa, u tasviriylik, hissiylik, sub'ektivlik, muallifning muayyan komponentga munosabati va bahosining ifodalanishi bilan ajralib turadi. Badiiy matn makonida aytilmagan so'zlar orqasida yashiringan syujet harakatining ichki dinamikasi mavjud bo'lib, ular nafaqat sukunat, balki tashqi ko'rinishlari bilan oddiy leksemani ifodalovchi pretsedent birliklar ham bo'lishi mumkin.

Matnga pretsedent nomni kiritish vositasi – bu “mashhur adabiy yoki tarixiy va madaniy faktga ishora qiluvchi ism yoki ismni ishlatish usuli” hisoblanadi [2, 83-91].

Pretsedent nomlarning matndagi uslubiy qiymati, bajarayotgan vazifasi asar g‘oyasini ochib berishdagi xizmatini aniqlash orqali shu asarning lingvostilistik xususiyati, asar muallifining individual uslubi haqida so‘zlash mumkin bo‘ladi.

Pretsedent nomlar va uning turlari haqida badiiy matnda intertekstuallik ostida ko‘plab ilmiy tadqiqot ishlari olib borilgan. Pretsedent ism individual va murakkab belgi sifatida talqin qilinadi, ularning qo‘llanishi differensial xususiyatlariga murojaat etishni taqozo qiladi. Har bir matnda pretsedent nomlarning mavjudligi muallif niyatini amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan madaniy, umumiy semantik va assotsiativlik bilan izohlanadi. Muallif matnda asos qo‘llangan pretsedent nomlar syujetning rivojlanishiga ta‘sir qiladi, hikoya chizig‘idagi yo‘nalishni belgilaydi. SHuning uchun bu nomlarning nominativ, farqlovchi, ijtimoiy, hissiy, estetik va ekspressivlik funksiyalari bilan to‘ldirib, ulardagi muhim qo‘shimcha imkoniyatlarni to‘plashga yordam beradi.

Pretsedentlik nazariyasida, nomlar qo‘llanishiga ko‘ra ikkiga ajratiladi: denotativ va konnotativ. Rus tili ommaviy kommunikatsiyasidagi pretsedent nomlarni atroflicha tadqiq etgan E.A.Naximova Xirosima toponimini misol sifatida keltiradi. Masalan, **Xirosima** – denotativ qo‘llashda YAponiya shahar nomini anglatadi, konnotativ qo‘llashda esa “**atom bombasi qurboni bo‘lgan joy**” ma‘nosini anglatadi. Olima pretsedent nomlar faqat metaforik yoki metanomik ma‘noga ega bo‘lishini ta‘kidlaydi [3,124].

Demak, pretsedent nomlar badiiy matn tarkibida ko‘chma ma‘no ifodalab kelishida o‘quvchidan nomlar tanish bo‘lishligi talab qilinadi.

Tilshunos tadqiqotchilar o‘rtasida dolzarb masala – bu hozirgi kungacha qizg‘in muhokama qilinayotgan pretsedent nomlarni aniqlash mezonlaridir. E.A.Naximova o‘zining “Ommaviy kommunikatsiyadagi pretsedent nomlari”

nomli monografiyasida pretsedent nomlarni tanlashning quyidagi mezonlarini belgilaydi:

1. **Grafik mezon**– ommaviy axborot vositalari matnlarida, pretsedent antroponimlar (atoqli nomlar) turli imlolar bilan uchraydi: ba’zi hollarda kichik harflar bilan, ba’zilarida katta harflar bilan. Katta harfmualliftasvirlaganotnipretsedent nom sifatidabelgilashinibildiradi. Masalan, *“Oramizda Abdulla Oripovlar, Muhammad Yusufklar, Nodirayu Uvaysiylarning armonlarini she’riyatga ko’chirgan Zulfiyalar” o’tiribdi.* (O‘zbekiston adabiyoti va sa’nati gazetasi 2005 y).

2. **Morfologik mezon** – bu mezon pretsedent nomni birlik va ko’plik shaklda qo’llashni nazarda tutadi. Ko’pincha, pretsedent nom birlikda ishlatiladi. Masalan,

*Siz bugungi **Kumushlar**, ayol zotin sarasi,*

Sochingizni to abad ishq qo’llari tarasin,

***Otabeklar** topsa ham qovushmoqlik chorasin,*

Oson emas ekan-ku abad asramoq, suymoq,

Oson ekan-ku axir Sizni boy berib qo’ymoq (H.Xudoyberdieva “Kumushning o’limiga”)

3. **Tinish belgili mezon** – pretsedent nom uchun eng xarakterli va o’ziga xos xususiyatga ega bo’lgan mezondir. Odatda, so’zning o’ziga xos qo’llanishini ta’kidlash va foydalanish uchun pretsedent nom qo’shtirnoq ichiga olinadi. Masalan, *Davrimizning yangi “Sheralilari”.* (O‘zbekiston adabiyoti va sa’nati gazetasi 2008 y).

Pretsedentlik nazariyasida pretsedent nomlarni farqlash uchun xizmat qiluvchi ko’plab mezonlar mavjud. Taqdim etilgan mezonlar pretsedent manbalari uchun eng muhimi hisoblanadi. SHuningdek, hozirda ham tilshunoslar tomonidan batafsil tadqiqot qilinadigan mezonlar sifatida foydalanib kelinmoqda.

Y.N.Karaulovning ta’kidlashicha, pretsedent nomlar tayyor mazmuniy bloklar bo’lib, ular ko’p qirrali hodisa sifatida tilshunoslikda turli aspektlarda

o'rganilishi lozim. Bu borada olim pretsedent nomlarning lingvopoetik tadqiqini ham nazarda tutgan bo'lib, bu kabi tadqiqotlar orqali badiiy matndagi ko'pchilikka tanish bo'lgan mashhur nomlarning ijodkor badiiy niyatini yoritishda muhim vosita bo'la olishini aytadi [5,76- 77].

V.V.Krasnix, Yu.A.Sorokin va I.M.Mixaylev badiiy asarda pretsedent birliklarning roliga e'tibor qaratib, pretsedent matni ham badiiy matnning semantik hajmini markazlashtirish vositasi ekanligini ko'rsatib, beradi [6, 6].

Badiiy matn tilshunoslik nuqtai nazaridan ancha noyob va nisbatan kam o'rganilgan hodisadir. Badiiy matn muallifning ma'lum bir tarkibiy qismga munosabatini tasvirlash va ifodalash bilan tavsiflanadi. Badiiy matn o'quvchining aqliy obrazlari harakatini qo'zg'atadi, uning ongi esa mualliflik vazifasini ham bajaradi. O'quvchi bilan aloqaga kirishish uchun muallif ma'lum metodlardan foydalanadi, masalan, ong oqimi (falsafadan olingan atama). Demak, har qanday badiiy matn o'zining yangiligi bilan ajralib turadi, aks holda uning o'ziga xos xususiyati bo'lmaydi.

Adabiyotlarro'yxati

1. Юлдашов М. Бадий матн лингвопоэтикаси. Монография. Ўзбекистон Республикаси, ФА. Фан нашриёти, 2008. – Б. 88.
2. Арнольд И.В. Импликация как прием построения текста и предмет филологического изучения//Вопросы языкознания. 1982. № 4. – С. 83-91.
3. Нахимова Е.А. Кўрсатилган асар. – 124
4. Гунько Ю. Особенности функционирования прецедентных высказываний в разговорной речи носителей русского языка: Дисс...дра. филол. наук. – Санкт Петербург, 2002. – С.76-77.
5. Красных В.В. Система прецедентных феноменов в контексте современных исследований /В.В.Красных//Язык, сознание, коммуникация: Сб.статей [Ред.В.В.Красных, А.И.Изотов].–М.:Филология, 1997.вып.2. – С. 6.
6. Лосев А.Ф. Знак. Символ. Миф. Труды по языкознанию / А.Ф. Лосев. – М.: изд-во МГУ, 1982. – С. 453

7. Axmadjonov Nurbek, Islomjonova Jasmina. Badiiy matnda allyuziv antroponimlarning xususiyatlari. Journal of advanced research and stability volume: 03 issue: 01 | jan - 2023 issn: 2181-2186
8. Akhmadjonov Nurbek FerSU, PhD in philology, Yusupova Mohibonu FerSU, Student. Allusive Names in Artistic Texts. Vital Annex: International Journal of Novel Research in Advanced Sciences (IJNRAS) Volume: 02 Issue: 02 | 2023 ISSN: 2751-756X. Page 34-38
9. Axmadjonov Nurbek f.f.b.f.d (PhD). German language teacher of Fergana state university <https://doi.org/10.5281/zenodo.7805868>. Lingocultural characteristics of allusive anthroponyms in artistic text. jahissn:2770-9132 journal of agriculture & horticulture. International scientific journal. jahuif=8.1 | sjif=5.69. jah | Volume 3, Issue 4, April Page 17-21
10. Akhmadjonov Nurbek f.f.b.f.d (PhD) German language teacher of Fergana State University. The precedent is about the name and its meaning. international conference on multidisciplinary research Hosted from Singapore. Page. 108-111
11. Axmadjonov Nurbek f.f.b.f.d (PhD) Badiiy matnda ba'zi onomastik birliklarning pretsedent nomlar sifatida qo'llanishi. Давлат тили тараққиёти: муоммо ва ечимлар. илмий-амалий анжумани материаллари. Тошкент, 27.10.2023. 481-486 бетлар
12. Axmadjonov Nurbek f.f.b.f.d (PhD) Poetonimlarning badiiy asarlarda qo'llanishi. Ўзбек тили тараққиёти ва халқаро ҳамкорлик масалалари. Халқаро илмий-амалий конференция материаллари 19.10.2023. 352-357 бетлар.
13. Nurbek Akhmadjonov Signs of a precedent name (example of the name "Berliner Mauer") "Science and Education" Scientific Journal / Impact Factor 3.848 (SJIF) January 2023 / Volume 4 Issue 1
14. Dadajonov Oybek Zakirjonovich Fergana State University Doctor of Philosophy on Philological Sciences (PhD) Stages of development of the modern

drama. Academic international conference on multi-disciplinary studies and education hosted from pittsburgh, usa 2770-9132